

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «7» 7

2022-10-4-66-OB-son

Chiroqchi sh.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Chiroqchi tuman hokimligi odonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi A.K.Abduraxmonov bir nandan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan SHAROFAT MAJIDOVNA CIHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi Sh.Shokirov ikkinchi tomondan doir mazkur drat shartnomasini tuzdilar.

iroqchi tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi inshootni kapital nirlash ishlari uchun loyxa smeta xamda ekspertiza xujjatlari asosida shartnomasini tuzdilar.

I. TARIFLAR

Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi: ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar ki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan aragarihlarning ushbu ishehi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda 'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan job-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va idalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar; qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) irasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan dratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi ki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi; vaqtinchalik hootlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun ur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar; berkitiladigan ishlar - ati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik jariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar; shartnoma narxini bo'lib iqish - ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma 'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSIVA AMAL QILISH MUDDATI

Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga 248 500 000 (Ikki yuz qirq sakkiz million besh z ming) so'm bo'yicha bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish larini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga hirish majburiyatini oladi. Shartnoma ikkala taraf tomonidan imzolaniib G'aznachilik

bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va "31" Dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (2022 yil "04" Iyuldagi 114028-son bayonnomasi) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **248 500 000 (Iki yuz qiriq sakkiz million besh yuz ming) so'mni** tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno: qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda; ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

5. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

6. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun: barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga ___ ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish; ___ ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash; qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish; Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish; qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish; mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Podratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va podratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor bo'lishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMAChINING MAJBURIYATLARI

Buyurtmachi mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi: mazkur shartnoma imzolangan kundan hisoblab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ___- ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan dalolatnoma bo'yicha Podratchiga berish; ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-ish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Podratchi tomonidan qabul qilingan buyurtmalar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Podratchidan olingan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash; Podratchining barcha murojaatlarini o'n uch kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; moliyalashtirish jadvaliga binoan Podratchiga ___-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Podratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

Shartnoma: milliy valyuta "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan kundan boshlab; keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan tuzatilgan azilgandan keyin kuchga kiradi.

Podratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq buyurtmachi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 60 kunni tashkil etadi.

Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

Buyurtmachi Podratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi (sahibidori) avans o'tkazadi, bu 74 550 000 (Yitmish turt million besh yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi.

Buyurtmachi tomonidan Podratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (-ilova).

15. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizigacha doirasida amalga oshiriladi.

16. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 50 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda;

ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida - ishlar qiymatining kamida 45 foizi miqdorida;

mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

17. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

18. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH

19. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

20. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.

21. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

22. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasini va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bo'lish beradi.

Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni to'ldirish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan hisoblab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni qurilish yuzasiga qurilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik nuqtalarini taqdim etadi.

Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va qurilish tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining aniqligini to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Buyurtmachi ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar to'g'risida, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan beradi.

Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarishda va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va qurilish materiallovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan talablar va shartlarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning muvofiq bo'lishini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

Allohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab pudratchi qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "arxitektqurilishnazorat" inspeksiya sinini yozma ravishda xabardor qiladi.

Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning "arxitektqurilishnazorat" inspeksiya sinisi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar muvofiq bo'lishini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

33. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

34. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarining istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

35. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

36. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

37. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. ISHLARNI QO'RIQLASH

38. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni

idida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada taqriban ta'qinlanishini ta'minlaydi.

Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy falokatlar va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzatib beriladi.

Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga uzatilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma o'zgartirishni talab qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. QURILISHI TUGALLANGAN OB'JEKTNING QABUL QILIB OLIISH

Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda qabul qilingan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma tasdiqlashnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida qabul qilinadi.

Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. KAFOLATLAR

47. Pudratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatizatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini; ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni; ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

48. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 3 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomoning kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

49. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

50. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

51. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda; Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan

jada buzilganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning o'z qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Putratchi:ishlarning bajarilishi Putratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra urtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda; Buyurtmachi onidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa lar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Putratchining qo'shma qaroriga ko'ra llanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ar qiymatini Putratchiga to'laydi.

Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq nchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki kkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan lirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining rtnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa un hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha obgarlikka tortiladi.

Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya naganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa jburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Putratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun jburiyatlarning bajarilmagan qismining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda ryaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining foizidan oshmasligi lozim.

nya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni plashdan ozod qilmaydi.

. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tganligi uchun Buyurtmachi Putratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan mmaning 30 foizi miqdorida jarima to'laydi.

60. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilga nuqsonlar va kachiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

61. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 30 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

62. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

63. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

64. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. ALOHIDA SHARTLAR

65. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

66. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda niylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi buriyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur tnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida ga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod sh sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun atlari normalari qo'llaniladi.

Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVII.KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan beksiton Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga shi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir birini ishontiradi va ularga amal shni kafolatlaydi.

Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning s'abador shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari, va boshqa vakillari) Ta'minotchi xonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi xonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ jatlariidagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablariga qat'iy rioya etish buriyatini oladi.

VIII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARIVA YuRIDIK MANZILLARI:

BUYURTMACHI:	PUDRATCHI:
mi:Chiroqchi tumani hokimligi obodonlashtirish shqarmasi nzili: Chiroqchi tumani xonjon kuchasi 2/43 uy x/r 100022860102427065200110007 N: 204 955 228 aznachilik nomi: O'zRes Moliya Vazirligi aznachiligi : 23402000300100001001 ISN: 201 122 919 nk: Toshkent sh. Markaziy Bank BBXKKM MFO: 014 hbar: A.K. Abduraxmonov	Nomi: SHAROFAT MAJIDOVNA MCHJ Manzili: Chiroqchi tumani Shx/r: 20208000705009295001 Bank nomi: Ipatika bank shahrisabiz filiali MFO: 00165 INN: 302429809 Rahbar: Sh.Shokirov

Директор ООО "Транс-Сибирь" А.И. Иванов. Контакт: +7 (301) 123-4567. Адрес: г. Красноярск, ул. Ленина, д. 100.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi to'g'risida

Chiroqchi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi bilan "Sharofat Majidova" MChJ o'rtasida qiymati 248 500 000 (Ikki yuz qirq sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qilgan shartnoma to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Chiroqchi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i A.K.Abdurahmonov 2022-yil 06-iyul.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Chiroqchi tumani Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



D.Y.Olmosov

2022-yil «07» iyul.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: VT5684411202

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 114028 на приобретение Chiroqchi tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi inshoatni kapital tamirlash ishlari uchun

Способ проведения электронный

та 04.07.2022

ремя рассмотрения 04.07.2022 18:12

нкурсная комиссия Туман хокимлиги Ободонлаштириш бoшқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	NORMOMINOV ISOMIDDIN ZIYADULLAYEVICH	бошқарма бошлиги	Чирокчи туман ободонлаштириш бошқармаси
Секретарь комиссии	NURMUXAMMEDOV BAHODIR G'AYRAT O'G'LI	бош хисобчи	Чирокчи туман ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	JORAYEV ANVAR ESHDAVLATOVICH	хужалик мудир	Чирокчи туман ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	ALLAYOROV ABDULLA AMIRQULOVICH	бошқарма биргадери	Чирокчи туман ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	DAVLATOV ANVAR ABDULLAYEVICH	Нур булими бошлиги	Чирокчи туман ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	BOBOQULOV SARVAR RASULOVICH	Бошқарма мутахассиси	Чирокчи туман ободонлаштириш бошқармаси

смотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном
формационном портале от 04.07.2022 года № лота 114028.

год оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф. технико-квалификационной части: 40.00 / Весовой
ф. ценовой части: 60.00)

н. Балл: 60

предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по капитальному ремонту сооружений
Подробное описание	Chiroqchi tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi inshoatni Kapital tamirlash ishlari uchun
Количество товара	1,00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	249 900 000,00
Стартовая сумма	249 900 000,00
Валюта	UZS

итога рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие
баллы:

критерий №1 Танловдаги объекта ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибаси. Шунингдек жорий танлаш
объекти коллатини ўрганиш

Текстовое значение

Описание: Охириги 3 йил давомида бажарилган ишлари буйича Ф-2 ва Ф-5 маълумотлари. Шунингдек аввалги таъмирлаш ишлари буйича тегишли буюртмачилар томонидан ижобий тавсияномалар, ёки хулосалар. Жорий танлаш объектини жойида ўрғанилганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар (маҳалла ва қишлоқлар мутасадди вакилларида олинган маълумотнома ва бошқа ҳужжатлар)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
YAKKABOG' NUR BARAKA XK	20	225000000	14	Экспертная		
ООО NURISTON TEKS GROUP	20	файл илова қилинади	10	Экспертная		
SHAROFAT MAJIDOVNA	20	248 500 000 сумга ўз муддатида ва сифатли бажарилишини таъминлаймиз	20	Экспертная		

Критерий №2 Танлаш таклифининг қайтариб олинмаслигини таъминлайдиган закатат ёки банк кафолатининг мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилот таъмирлаш ишларини сифатли ва белгиланган муддатда тугатишини асословчи танлов предмети буйича тегишли банк муассасасидани кафолат хати тақдим этилиши лозим. Шунингдек талабгор ташкилотнинг банк ҳисоб рақамида танлов предметининг кмида 20% миқдорида маблағлар қолдиғи бўлиши. Агар ушбу талаб буйича маълумотлар тўлиқ ва сифатли бўлмаган тақдирда, комиссия таркиби томонидан иштирокчи таклифи рад этилиши, ёки қисман баҳоланиши мумкин

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
YAKKABOG' NUR BARAKA XK	30	225000000	19	Экспертная		
ООО NURISTON TEKS GROUP	30	файл илова қилинади	20	Экспертная		
SHAROFAT MAJIDOVNA	30	248 500 000 сумга ўз муддатида ва сифатли бажарилишини таъминлаймиз	30	Экспертная		

Критерий №3 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Низом ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг паспорт нусхалари. СТИР ракамлари. Статистик маълумотлар. Бошқа мавжуд ҳужжатлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
YAKKABOG' NUR BARAKA XK	10	225000000	7	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
DOO NURISTON ELKS GROUP	10	файл илова килинади	5	Экспертная		
ИЯРОФАТ АЖИДОВНА	10	248 500 000 сумга ўз муддатида ва сифатли бажарилишини таъминлаймиз	10	Экспертная		

критерий №4 Танлов иштирокчисининг салоҳияти

тип: Текстовое значение

описание: Пудрат ташкилоти электрон рейтинги тугрисида маълумот. Туловга қодирлиги ва айланма маблағлар лан таъминланганлиги. Хисоб рақамидаги маблағлар қолдиғи. Солик, банк кредитлари ва бошка туловлардан рздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисидаги маълумотлар.

важбдорлик: Не критично

наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AKKABOQ' R BARAKA K	25	225000000	15	Экспертная		
DOO NURISTON ELKS GROUP	25	файл олова килинади	16	Экспертная		
ИЯРОФАТ АЖИДОВНА	25	248 500 000 сумга ўз муддатида ва сифатли бажарилишини таъминлаймиз	25	Экспертная		

критерий №5 Танлов иштирокчисининг иш ҳақи жамғармаси ва ҳодимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлар

тип: Текстовое значение

описание: Ходимлар сони ва тажрибаси тугрисида маълумотлар

важбдорлик: Не критично

наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AKKABOQ' R BARAKA	15	225000000	10	Экспертная		
DOO NURISTON ELKS GROUP	15	файл илова килинади	10	Экспертная		
ИЯРОФАТ АЖИДОВНА	15	248 500 000 сумга ўз муддатида ва сифатли бажарилишини таъминлаймиз	15	Экспертная		

состав участников финансовой части составила:

наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)

OOO NURISTON TEKS GROUP	249 900 000.00	227 409 000.00	04.07.2022 13:01:51	59.36
SHAROFAT MAJIDOVNA	249 900 000.00	248 500 000.00	04.07.2022 15:50:55	54.33
YAKKABOG' NUR BARAKA XK	249 900 000.00	225 000 000.00	04.07.2022 10:18:45	60.00

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
OOO NURISTON TEKS GROUP	24.4	59.36441	83.76441
SHAROFAT MAJIDOVNA	40	54.32596	94.32596
YAKKABOG' NUR BARAKA XK	26	60	86

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 114028 от 04.07.2022 года на приобретение Chiroqchi tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi inshootni kapital tanirlash ishlari uchun определила победителем:

SHAROFAT MAJIDOVNA
302429809

и резервный исполнитель: YAKKABOG' NUR BARAKA XK (302021755)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	JO'RAYEV ANVAR ESHDAVLATOVICH	Согласен	
Член комиссии	ALLAYOROV ABDULLA AMIRQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	DAVLATOV ANVAR ABDULLAYEVICH	Согласен	
Председатель комиссии	NORMO'MINOV ISOMIDDIN ZIYADULLAYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Юридик шахсни давлат руйхатидан утказиши туғрисида

ГУВОХНОМА

Реестрдаги тартиб рақами № 472

2012 й 29 Ноябрь

Маъқур гувоҳнома юридик шахс

Chiroqchi Pahta tozalash aksonerlik jamiyati

"SHAROFAT MAJIDOVNA" шубба корхонасига

(юридик шахс бўлган ҳисоб ҳужжатлари, фермер хўжалиқлари, туғилган эркинлик эришган ва шунинг билан биргаликда) берилган.

Ташкилий ҳуқуқий шакли	ТХШ
	1100
Мулкчилик шакли	МШ
	148
Почта манзили	МХОБТ
	1710242501
Юридик шахснинг манзили	КТУТ
	24112241
Тармоқ коди	ХХТУТ
	17220
Солиқ тўловчининг идентификация рақами	СТИР
	302429809

Қушимча маълумотлар

М.У.

Chiroqchi tumani hokimligining huzuridagi tadbiqkorlik subyektlarini ruyxatdan utkazish inspeksiyaesi boshligi

Handwritten signature

Ш.Усанов



NURISTON TEKS GROUP

MAS'ULYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

Nuriston sh

№35 "04" iyul 2022y

Nishon tumani.

Chiroqchi tumani
Hokimligi Obodonlashtirish
boshqarmasi
Xarid komissiyasiga


MA'LUMOTNOMA

"Nuriston teks group" MCHJ (INN 305151900) Sizga shuni yozib ma'lum qiladiki, jamiyatimiz bir necha yillik ish tajribasiga va o'zining malakali xodimlariga ega bo'lib, uzoq yillardan buyon qurilish va montaj sohasida faoliyat olib bormoqda. Hozirgi kunda bizning jamiyatimiz noinsof yetkazib beruvchilar ruyxatida mavjud emasligiga kafilmiz.

Siz tomoningizdan «Chiroqchi tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi inshootni kapital tamirlash» ishlari uchun elektron tanlov e'lon qilingan bo'lib, biz ushbu ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'liq va puxta o'rganib chiqqanligimizni ma'lum qilgan holda, barcha ishlarni sifatli bajarib berishimizni ma'lum qilamiz.

Hurmat bilan,

Direktor



J.Ergashev

Adress:

Qashqadaryo viloyati,
Nishon tumani.
Kimyogar MFY

Tel.:

+ 998 90 975 90 89
+ 998 99 264 90 89

Email:

nuristonteksgroupmchj@bk.ru
gyodgor@mail.ru





Юридик шахени давлат руйхатидан утказиши туғрисида

Г У В О Х Н О М А

Реестрдаги тартиб раками

488

488

2011 йил «10» июн

Мазкур гувоҳнома юридик шахс

«YAKKABOG' NUR BARAKA»

XUSUSIY FIRMASI

га

(Узбек тилида-узбекчиси)

Яккабоғ туман тadbirkорлик субъектларини давлат руйхатидан утказиши инспекцияси томонидан берилган.

(Юридик шахс булган деҳқон хужалиқлари, фермер хужалиқлари ва шун шаклидаги ер участкаси ва унинг майдони курсатилади)

Ташкилий –ҳуқуқий шакли:

ТХШ

1010

Мулкчилик шакли:

МШ

114

Почта манзили:

МХОБТ

1710250

Юридик шахс коди:

КТУТ

23748281

Тармоқ коди:

ХТТУТ

61110

Солиқ туловчининг идентификация раками:

СТНР

302021755

Кушимча маълумот: 2013 йил 24 апрелдаги 1-сонли қўғи асосан тармоқ
коди 71300 код 61110 га ўзгартирилди

М.У Ваколатли орган раҳбари

У. Рашидов



Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги "Республикада қўқаламзорлаштириш ишларини жадаллаштириш, дарахтлар муҳофазасини янада самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-46-сонли Фармониغا асосан туман ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси тасарруфдаги қўқаламзорлаштириш ҳудудларига сугориш тизимларини ва сув чиқариш қудуқларини ташкил этиш бўйича

2022 йил МАНЗИЛЛИ РЎЙХАТИ № 2

(Асос: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги ПФ-46-сонли Фармони)

(млн.сўм, жорий нархда)

Объектлар номи ва манзили	Қурилиш бошланган ва фойдаланишга топширилган йили	Лойиҳа қуввати (ўқувчи ўрин, ётоқ, ошхона, спорт зал)	Объектнинг умумий қиймати (шартнома асосида) жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й. ҳолатига объект қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й., ҳолатига объектнинг молиялаштирилган қолдиқ жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	2022 йил учун капитал қўйилмалар лимити					2022 йилда фойдаланишга топширилган		01.01.23 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг (қайта ҳисоблаш билан) қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.23 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг молиялаштирилган қолдиқ жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	Экспертиза хулосаси рақами ва санаси	Тендер (таплов)лар натижасига бўйича баённома рақами ва санаси	Қурилиш пудрат ташкилот номи
						Жами капитал қўйилмалар	шу жумладан			Муддат/куват	Асосий фонд суммаси						
							Қурилиш - монтаж ишлари	Жихоз	Буюртмачи бошқа харажатлари								
1	2	3	4	5	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
Чирчиқ тумани "Янгиқурилиш" МФЙда 1 юна қудуқ казиш ва 2 км сувур ётқизиш	2022 йил			255,0	255,0	255,0			5,1		2022 йил 30 август						

Чирчиқ тумани ҳокимининг қурилиш, коммуникациялар, коммунал хўжалик, экология ва қўқаламзорлаштириш масалалари бўйича ўринбосари

Б.Норқобилов

Чирчиқ туман ҳокимлиги молия бўлими мудир

Ш.Махматқулов

Чирчиқ туман иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш бўлими раҳбари ўринбосари

А.Райимов

Чирчиқ туман ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи

И.Нормуминов

